

AXBOROT MAYDONIDA PSIXOLOGIK TAHDIDLAR VA ULARNING JAMIYAT BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Yusupova Bahoroy Axrorovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18607069>

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy globallashuv va raqamli texnologiyalar rivoji sharoitida axborot makonida yuzaga kelayotgan psixologik tahdidlar ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda axborot oqimining tezligi va nazoratsizligi shaxs ruhiy holati hamda jamiyat barqarorligiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar statistik ma'lumotlari asosida axborot bosimining global ko'lami ochib berilib, O'zbekistonda axborot manipulyatsiyalarining oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil etiladi. Maqolada axborot madaniyatini yuksaltirish va psixologik barqarorlikni mustahkamlash jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: Axborot maydoni, psixologik tahdid, axborot xavfsizligi, axborot madaniyati, ijtimoiy barqarorlik, yoshlar ongi.

Аннотация: В статье рассматриваются психологические угрозы, возникающие в информационном пространстве в условиях глобализации и активного развития цифровых технологий. Анализируется влияние неконтролируемых информационных потоков на психическое состояние личности и социальную стабильность общества. На основе данных международных организаций раскрывается масштаб психологического давления в глобальном информационном пространстве, а также анализируются меры, реализуемые в Республике Узбекистан по предотвращению информационных манипуляций. Обосновывается значение формирования информационной культуры и психологической устойчивости как важного фактора общественного развития.

Ключевые слова: Информационное пространство, психологические угрозы, информационная безопасность, информационная культура, социальная стабильность, молодежь.

Abstract: This article analyzes psychological threats emerging in the information environment under the conditions of globalization and rapid development of digital technologies. The study examines the negative impact of uncontrolled information flows on individual psychological stability and social cohesion. Based on statistical data from international organizations, the global scale of information pressure is revealed, and the measures implemented in Uzbekistan to prevent information manipulation are analyzed. The article substantiates that enhancing information culture and psychological resilience is a key factor in ensuring sustainable social development.

Keywords: Information space, psychological threats, information security, information culture, social stability, youth.

Kirish. Zamonaviy globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda axborot maydoni jamiyat hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar hamda raqamli platformalar orqali tarqalayotgan axborot oqimi inson ongiga, dunyoqarashiga va xulq-atvoriga bevosita hamda chuqur psixologik ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, axborotlarning haddan tashqari tezkorligi, ularning mazmunan nazoratsiz va tanqidiy filtrlarsiz

iste'mol qilinishi shaxsning psixologik barqarorligiga jiddiy tahdid soluvchi omillarni yuzaga keltirmoqda.

Bu jarayonlar, eng avvalo, yosh avlodning ongiy shakllanishi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan xavflidir. Shu nuqtayi nazardan, Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida ilgari surgan fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, davlat rahbari: "Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi 'virusi' tarqalishining oldini olishdir", deb ta'kidlar ekan, axborot makonidagi g'oyaviy va psixologik xavflarning oldini olish masalasini global miqyosdagi muhim vazifa sifatida belgilab berdi. Mazkur yondashuv shuni ko'rsatadiki, axborot maydonida vujudga kelayotgan psixologik tahdidlar nafaqat individual ruhiy holat bilan bog'liq muammo, balki jamiyat xavfsizligi, ma'naviy barqarorlik va kelajak taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq ijtimoiy-falsafiy masala hisoblanadi. Shu bois ushbu tahdidlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning mexanizmlari va oqibatlarini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Natija va muhokama. Axborot makonida yuzaga kelayotgan psixologik tahdidlar alohida shaxsning ruhiy holati bilan cheklanib qolmay, jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita va tizimli ta'sir ko'rsatadi. Noto'g'ri yoki manipulyativ axborotlarning keng tarqalishi jamiyatda ishonch muhitining zaiflashuviga, ijtimoiy munosabatlarda shubha va xavotir kayfiyatining kuchayishiga olib keladi. Bu jarayon, o'z navbatida, fuqarolar o'rtasida o'zaro ishonchning pasayishi, ijtimoiy faollikning susayishi va jamoaviy mas'uliyat hissining zaiflashishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy psixologiya sohasining yetuk namoyandalardan biri Erich Fromm jamiyatda ongli ishonch va ruhiy barqarorlik buzilishi insonni befarqlik va ichki xavotir holatiga olib kelishini ta'kidlab, bunday muhitda shaxs ijtimoiy mas'uliyatdan chekinishga moyil bo'lishini ilmiy asosda ko'rsatadi[1]. Shushbu masalaga, World Health Organization ma'lumotlarini tahlil qilish o'rinli sanaldi. Unga ko'ra, dunyo miqyosida har yili 970 milliondan ortiq inson turli darajadagi ruhiy zo'riqish va psixologik bosim holatlarini boshdan kechiradi, ularning sezilarli qismi axborot bosimi va doimiy salbiy axborot oqimi bilan bevosita bog'liqdir[2].

Psixologik tahdidlarning kuchayishi natijasida jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlar chuqurlashib, turli ijtimoiy qatlam va guruhlar o'rtasida qarama-qarshilik kayfiyati shakllanishi mumkin. Axborot orqali onga singdirilayotgan qo'rquv, tajovuzkorlik yoki befarqlik g'oyalari ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazib, jamiyat taraqqiyotining izchil rivojlanishini sekinlashtiradi. Ushbu holatni tahlil qilgan rus psixologi va sotsiologi Sergey Kara-Murza axborot orqali onga tizimli bosim o'tkazilishi jamiyatni ichki parokandalikka olib borishini, ayniqsa yoshlar ongida noto'g'ri ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirishini qayd etadi[3]. Xalqaro tadqiqotlardan UNICEF hisobotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har uch nafar yoshdan biri ijtimoiy axborot muhitida psixologik bosim, qo'rquv yoki ruhiy beqarorlikka olib keluvchi axborot ta'siriga duch kelmoqda. Shu sababli axborot xavfsizligi masalasini faqat texnik yoki huquqiy doirada emas, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida kompleks tarzda ko'rib chiqish zarurli oydinlashadi.

Mazkur tahdidlarga qarshi samarali kurashish, eng avvalo, jamiyatda axborot madaniyatini yuksaltirish bilan bevosita bog'liqdir. Shaxsda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, axborot manbalarini solishtirish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Psixologik barqarorlikni mustahkamlash va axborot bosimiga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish jamiyatning ma'naviy immunitetini kuchaytiradi. Bu

borada O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan Axborot xavfsizligi markazi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda axborot makonida yolg'on va buzib talqin qilingan xabarlarining asosiy nishoni aynan yoshlar qatlamiga qaratilayotganligini 2022 yil hisobotida batavfsil ochiq lab bergan[4]. Shuningdek, O'zbekistonda axborot manipulyatsiyalarining oldini olish maqsadida raqamli monitoring tizimlari joriy etilishi, ta'lim muassasalarida axborot savodxonligiga bag'ishlangan maxsus mashg'ulotlarning yo'lga qo'yilishi hamda ijtimoiy tarmoqlarda ishonchli axborotni targ'ib etishga qaratilgan davlat va jamoatchilik tashabbuslari amalga oshirilmoqda.

Davlat va jamoatchilik institutlari tomonidan ishonchli axborot muhitini yaratish, ijtimoiy ahamiyatga ega axborotlarni tizimli va ochiq tarzda yetkazish hamda noto'g'ri xabarlarining oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday kompleks va ilmiy asoslangan yondashuv orqaligina axborot maydonidagi psixologik tahdidlarni kamaytirish, jamiyat taraqqiyotini barqaror yo'nalishda ta'minlash hamda shaxs va jamiyat o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni mustahkamlash mumkin. Shu bois axborot maydonidagi psixologik tahdidlardan himoyalanih bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng muhim ijtimoiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Asatulloev.I. (2025). Erix frommn ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(3), 111–118.
2. Jonkobilov.M. (2025). Threats of the digital world and its solutions . *Raqamli Iqtisodiyot Va sun'iy Intellekt Texnologiyalarining Jamiyat Rivojlanishidagi Ahamiyati*, 1(1), 59–63.
3. Кара-Мурза Сергей Георгиевич. *Манипуляция сознанием*. Москва, 2000.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O'RQ-764-son.